E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

COVID 19 INFEKSIYASINING BOLALARDA KLINIK KECHISHI

Xamzaeva Nilufar Toshtemirova
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasi assistenti

Samadov Amirxon Qudrat o'g'li
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi

Annotatsiya: Koronavirus pandemiyasi davrida bolalarning kasallanish holati va kasallikning klinikasi keng ko'lamda o'rganildi . Tadqiqotga asos bo'lib shifoxonalardan to'plangan ma'lumotlar va ilmiy manbalardan olingan nazaiy bilimlar xizmat qiladi.
Tayanch so'zlar: Covid - 19, bronxial astma, pnevmoniya, laringo-traxeit, bronxit, bronxiolit, inkubatsion davr, xastalikning boshlanish davri, nafas yo'llarining yallig'lanishi davri, asoratlar davri, Tuzalish davri, Rekonvalestsent davri, pielonefrit.
Аннотация: В период пандемии короновируса широко изучалась заболеваемость детей и клиника заболевания. Исследование основано на информации, полученной в больницах, и научных знаниях, полученных из научных источников.
Ключевые слова: Covid-19, бронхиальная астма, пневмония, ларинготрахеит, бронхит, бронхиолит, инкубационный период, начальный период заболевания, период воспаления дыхательных путей, период осложнений, восстановительный период, реконвалесцентный период, пиелонефрит.
Abstract: During the corona virus pandemic, the morbidity of children and the clinic of the disease were widely studied. The research is based on the information collected from hospitals and scientific knowledge obtained from scientific sources.
Key words: Covid-19, bronchial asthma, pneumonia, laryngo-tracheitis, bronchitis, bronchiolitis, incubation period, initial period of the disease, period of inflammation of the respiratory tract, period of complications, recovery period, convalescent period, pyelonephritis.

Mavzuning dolzarbligi: 2020 yili Butun dunyoda Covid-19 infeksiyasining shiddatli tarqalishi yuz berdi. Qisqa muddat ichida Osiyo, Amerika, Yevropa, Afrika, Avstraliya qit'alarida ushbu infeksiyaning pandemiyasi kuzatildi. Covid-19 infeksiyasi O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Ushbu infeksiya O'zbekistonda 2020 yil mart oyidan boshlab ro'yxatga olina boshladi. Covid-19 ning birinchi aniqlanishi va tarqalishi Xitoy Xalq Respublikasida 2019 yil dekabr oyida sodir bo'ldi. Ushbu infeksiyaning epidemik o'chog'i XXR Uxan shahrida (Xubey provinsiyasi) qayd qilindi.

COVID-19 o'ta kontagiozli, o'tkir respirator, virusli infeksiya bo'lib, umumiy intoksikatsiya, yuqori va quyi nafas yo'llarining yallig'lanishi, respirator belgilar, isitma, laringo-traxeit, bronxit, bronxiolit, total pnevmoniya bilan kechadigan, o'lim beradigan og'ir yuqumli kasallik hisoblanadi. Kasallik davrlari: 1. Inkubatsion davr 2. Xastalikning boshlanish davri 3. Nafas yo'llarining yallig'lanishi davri (avj olgan davr) 4. Asoratlar davri (pnevmoniya-zotiljam) 5. Tuzalish davri 6. Rekonvalestsent davri. Yashirin davri odatda 2-14 kun bulib o'rtacha 5-7 kunni tashkil etadi. Covid-19 o'tkir respirator virusli infeksiyalarga xos bo'lgan klinik belgar bilan kechadi.Tana haroratining ko'tarilishi (>90%) holatlarda; Yo'tal (quruq yoki kamroq balg'amli) 80% holatlarda; Hansirash 30% holatlarda ; Charchoq his qilish 40% holatlarda; Ko'krak qafasining siqilishi seziladi (>20%); Shu bilan birga tomoqda og'riq, burun bitishi, hid bilan ta'm bilish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi, kon'yuktivit belgilari ham kuzatilishi mumkin. Kasallikni yuqtirgandan 6-8 kunlari nafas olish juda qiyinlashadi. Bemorlarda kasallikning dastlabki kunlarida mushak og'rig'i, mialgiya (11%), bosh og'rig'i (8%), ich ketishi (3%), qusish, yurak urishining tezlashuvi kuzatilishi mumkin. Covid-19ning klinik shakllari. O'RVI (faqat yuqori nafas yo'llari shikastlanishi; Pnevmoniya (nafas yetishmasligi alomatlari yo'q); O'tkir respirator distress sindromi (o'tkir nafas yetishmasligi bilan kechuvchi pnevmoniya); Sepsis, septik infektsion-toksik shok; DBCsindromi, tromboz va trombo emboliya.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Asoratlar bo‘lishiga olib keladigan omillar: - qandli diabet - yurak qon-tomir kasalligining surunkali kechishi - surunkali o‘pka kasalligi - surunkali buyrak kasalliklari - allergik kasalliklar - surunkali nevrologik kasalliklar - anemiya - ikkilamchi immun tanqisligi - nevralgiya, nevrit, radikulonevrit

Bolalarda koronovirus Covid-19 xastaligida ko‘pincha quyidagi asoratlari kuzatiladi:

- kataral

-yiringli belgi

- gaymorit - seroz meningit

- glomurulonefrit (toksik nefrit)

- pnevmoniya

- nevrit, nevralgiya, radikulonevrit

Covid-19 xastaligining asorati – pnevmoniya Aralash pnevmoniya virus-bakterial uyushmasi natijasida ro‘y beradi. Bemorlarda o‘choqli, segmentar, qo‘shilib ketadigan, krupoz pnevmoniyalar kuzatiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘pkada kuzatiladigan pnevmoniya holatida nafaqat bronxiola, alveolalar, balki barcha oraliq to‘qimalar ham yallig‘lanish jarayonida ishtirok etadi. Yallig‘lanishda hosil bo‘ladigan suyuqlik (ekssudat) o‘pkani, o‘pka bo‘laklari oralig‘idagi bo‘shliqni alveolyalar orasini to‘ldiradi, natijada o‘pka fibrozi rivojlanadi. Pnevmoniyaning boshlang‘ich bosqichlarida aniqlash ancha qiyin. Covid-19 ning asorati sifatida pnevmoniya ko‘proq kasallikning birinchi haftasining oxirida, ikkinchi haftasining boshlarida kuzatiladi. Ammo lekin pnevmoniya kasallikning boshlanishida (3-4 kunlarida) ham kuzatilishi mumkin. Bunday holda o‘pkaning shikastlanishi odatdagi bakterial pnevmoniya bo‘lmay, atipik pnevmoniya ammo o‘pka to‘qimalariga va tomir devorlariga gialuron kislotasi ta’sir qilib, alveolalarni to‘ldiradi. Natijada paydo bo‘lgan pnevmonit, alveolyar qoplamani, ajratuvchi membranalarni yo‘q qiladi. Qon tomirlar devorining shikastlanishi natijasida o‘pkaning perfuziyasi kuzatiladi (o‘pka to‘qimasi qonli suyuqlik bilan to‘yinadi) kapillyarlar va mayda tomirlarda tromboz kuzatiladi. Pnevmoniya holatini o‘z vaqtida aniqlash qiyin. Pnevmoniya tashxisini qo‘yishda klinik belgilar, hamda rentgenologik, (MSKT) tekshirishlar orqali tashxis qo‘yiladi. Bemorlarda kuchli charchoqlik, holsizlik, hansirash, quruq yo‘talquvillash, ko‘p uxlash, bosh og‘riq, diareya, sianoz, burunning bitishi, nafas olganda ko‘krak qafas mushaklari, qorin mushaklari, diafragmaning zo‘riqishi kuzatiladi. Bemorlarning o‘pkasida kuchli sirkulyator, mikrotsirkulyator o‘zgarishlar kuzatiladi. O‘pka yetishmasligi, yurak qon-tomir yetishmasligi, arterial bosimning tez tushib ketishi, sianoz, akrotsianoz holati kuzatiladi, kasallik tez rivojlanadi. Bemorlarda kislorodga bo‘lgan talab kuchayadi. O‘pka yetishmasligi, distress sindrom, total pnevmoniya kuzatiladi. Patologik jarayonga plevra qo‘shiladi (plevropnevmoniya). Bemorlarda fibroz va yiringli plevritlar kuzatiladi. Ushbu jarayonning vujudga kelishida o‘pkada mavjud bo‘lgan pnevmokokklar, stafilokokklar, streptokokklar va boshqa bakteriyalar muhim rol o‘ynaydi. Pnevmoniya jarayoni kuzatilayotgan bemorlarda miokardit, toksik nefrit, seroz meningit asoratlari qo‘shiladi. Xulosa qilib aytganda, Covid-19 pnevmoniyasida poliorgan yetishmaslik holati kuchayadi va tezda davolash o‘tkazilmasa, o‘lim holati qayd etiladi.

COVID -19 o’tkazgan bronxialastmaning turli pog’onalaridagi bemor bolalar ambulatoriya kartalar va kasallik tarixlarini retrospektiv taxlili o’rganildi, COVID -19 o’tkazgan bronxial astmaning turli pog’onalaridagi bemor bolalar 27 ta kasallik tarixi va 56 ta ambulatoriya yozuvlari o'rganildi. Taqqoslash guruhi COVID-19 dan o'tkazilgan B A siz 44 boladan iborat edi. Natijalar. 76,3% hollarda bolalaroilada koronavirus bilan kasallangan bemorlar bilan aloqada bo'lgan. B A bo'lgan bolalarda COVID-19 ning klinik kechishi yengil va asosiy kasallikning klinik xususiyatlariga ta’sir ko’rsatmadi. COVID-19 56,6 foizbolalarda o‘tkir respirator infeksiya

sifatida kechgan. BA bo'lgan bolalarda quruq, qiynovchi yo'tal 63 (75,9%) sezilarli darajada ko'proq bo'lgan. 21 (25,3%) bolalarda astma allergic rinit (AR) bilan birga kechgan. Ba'zii bolalarda koronavirus infektsiyasi osonroq kechganligini ko'rish mumkin. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, BA bilan kasallangan bolalarda COVID-19 asosan yengil, o'rtacha klinik belgilar bilan kechgan.

SARS-CoV-2 (Covid 19) ko'p tizimli infektsiya bo'lib, u o'pkaning shikastlanishi bilan cheklanmaydi va organ -tizimlarga, shu jumladan buyraklarga immun vositachi sifatida ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga qadar COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda nefrologik kasalliklarning patogenezi haqida aniq tushuncha mavjud emas. Ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha, COVID-19 infektsiyasi asosan buyrak kasalligi bo'lgan odamlarda davolanishni murakkablashtirishi va o'lim darajasini oshirishi mumkin [6, 7]. Hamroh kasalliklar pielonefritning qaytalanishiga olib kelishi mumkin va bu har bir amaliyot shifokoriga ma'lum. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan pielonefrit boshlangan barcha bolalarda febril isitma, intoksikatsiya belgilari; yuzning pastozligi 78,8% bolalarda qayd etilgan, dispeptik hodisalar 36,3% da aniqlangan. 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida siydik ajratish buzilishining eng yuqori chastotasi (43,0%) va siydik tuta olmaslik ko'rinishi qayd etilgan. Ushbu guruh qorin og'rig'i sindromi bilan ham tavsiflangan (39.4%). Katta yoshdagi bolalarda palpatsiya paytida qorinning og'rig'i va ijobiy Pasternatskiy simptomi mos ravishda 75,0% va 60,0% bolalarda qayd etilgan. Pielonefritning kechishini murakkablashtiradigan ko'pgina yuqumli kasalliklar ma'lum bo'lsada ammo, COVID-19 infiksiyasidan keyin pielonefritning kechishi o'rganilmagan. Shu maqsadda biz COVID-19 bilan kasallangan bolalarda pielonefritning klinik kechishini o'rgandik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matnazarova G. et al. The new coronavirus-cOvid-19 in Uzbekistan //Int. J. Pharm. Res. – 2020. – C. 548-556.
2. Mirtazayev O. M. et al. SCIENTIFIC, METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL BASES OF MANAGEMENT OF THE EPIDEMIC PROCESS IN CASE OF SALMONELLOUS INFECTION IN UZBEKISTAN //Central Asian Journal of Pediatrics. – 2020. – T. 2020. – №. 3. – C. 5-14.
3. Urakovna N. N. et al. EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF THE HUMAN IMMUNODEFICIENCY VIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – T. 21. – C. 95-98.
4. Toshtemirovna K. N., Islamovna S. G., Sultanovna M. G. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //British View. – 2023. – T. 8. – №. 3.
5. Khamzaeva N. T. et al. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-«VIZION JUNIOR» IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – T. 20. – C. 41-45.
6. KJ K. A. K. O. G. O. K., Khamzaeva N. T. IDENTIFICATION OF THE PREVALENCE OF BREAST CANCER AMONG DIFFERENT AGE GROUPS OF THE POPULATION AND ITS PREVENTION //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 341-344.
7. Xamzaeva N. T. et al. COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bolalarning epidemiologik taxlili //E Global Congress. – 2023. – T. 2. – C. 117-119.
8. Toshtemirovna K. N., Islamovna S. G., Sultanovna M. G. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-" SEDAN BARK" IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //British View. – 2023. – T. 8. – №. 3.

9. Kurbonov A. K. et al. IDENTIFICATION OF THE PREVALENCE OF BREAST CANCER AMONG DIFFERENT AGE GROUPS OF THE POPULATION AND ITS. – 2023.
10. Матназарова Г. С. и др. Вакцинопрофилактика Covid-19 в Узбекистоне. – 2022.
11. Saidkasimova N. S., Mirtazaev O. M. Epidemic Process of Salmonellosis in Tashkent //Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology. – 2020. – Т. 14. – №. 4. – С. 7364-7367.
12. Расулов Ш. М. и др. Современные эпидемиологические особенности эхинококкоза и его профилактика //Школа эпидемиологов: теоретические и прикладные аспекты эпидемиологии. – 2020. – С. 51-53.
13. Mirtazayev O. M. et al. Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellous infection in Uzbekistan //Central Asian Journal of Medicine. – 2019. – Т. 2019. – №. 4. – С. 72-80.
14. Rasulov S. M. Improving the epidemiology, epizootology, and prevention of echinococcosis in Uzbekistan. Sh. M. Rasulov, GS Matnazarova 2, A. Mirtazayev 3, NT Xamzayeva 4 //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – Т. 7. – №. 02. – С. 2020.
15. Toshtemirovna K. N., Sultanovna M. G., Mirtazaevich M. O. “Covid-19 Infectionsining Epidemiologists Khususiyatlari"(Toshkent Shahri Misolid) //JournalNX. – С. 589-594.
16. Хамзаева Н. Т., Матназарова Г. С., Расулов Ш. М. ТОШКЕНТ ШАҲРИДА COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН КАСАЛЛАНГАНЛАРНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ. – С. 71.

WORDLY
KNOWLEDGE